# BOSHLANG'ICH SINFLARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRUVCHI DIDAKTIK MATERIALLAR VA VOSITALAR

**Durdona Valijonova**
*FarDU 2-kurs magistranti*
**Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna**
*FarDU,pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

**ANNOTATSIYA.** *Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, shu bilan birga turli muammolarga noodatiy yondashuvi va ijodiy qobiliyatini ijodiy shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Didaktik materiallar- o'quvchi faoliyatini oshiruvchi, mustaqil fikrlashga undovchi shu bilan birga ijodiy izlanishga yetaklovchi ta'limiy vositalardir. Bu vositalar orqali bolada tasavvur olami kengayadi, tafakkur qiladi l shakllanadi.Bu ko'rinishdagi materiallar standartlikdan chetga chiqib fikrlashni imkonini yaratadi.*

**KALIT SO'ZLAR.** *Kreativlik, interaktiv metod, ijodiy fikrlash, innovatsion ta'lim, ijodkorlik, qobiliyatlilik.*

Kreativ didaktik materiallarning asosiy turlari quyidagilardan iborat bo'ladi;

Muammoli va mantiqiy fikrlashga oid topshiriqlar- nima bo'ladi?, nima qilish kerak?, boshqacha yo'l bilan qanday yechish mumkin?

Ijodiy rag'batlar va o'yinlar- tasavvur qil, topishmoqlardan hikoyalar tuzish, bir so'z bilan ko'p g'oyalarni ifodalash kabi didaktik o'yinlar

Multimedia vositalari- interfaol o'yinlar, animatsion shakllar yordamida ijodiy yondashuvni shakllantirish yordamida amalga oshiriladi.

Didaktik o'yinlarning ahamiyati bolalarda kreativ fikrlashni tabiiy shaklda rivojlantiruvchi eng samarali usul hisoblanadi. T'lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, yangilik yaratish va tashabbuskorlikni oshiradi. Didaktik materiallar o'quvchilarni faol va teran fikrlashga undaydi. Ular yordamida o'quvchilar muammoli holatlarni tahlil qiladi, o'zi yechim topadi va fikrlarini asoslaydi.

Kreativlikni shakllantiruvchi vositalar;

Interaktiv electron resurslar- multimedia, online testlar va virtual laboratoriyalar.

O'yinli metodlar- rolli o'yinlar, mantiqiy topshiriqlar va ijodiy mashg'ulotlar.

O'qituvchi har qanday vaziyatda ham o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rag'batlantirish uchun sharoit yaratishi, o'quv materiallarini moslashtirishi va ochiq savollar bilan muammoli vaziyatlar orqali ularni mustaqil yo'naltirishi zarur bo'ladi.

**XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, kreativlikni shakllantirish uchun olingan didaktik materiallar ta'lim sifatini va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

O'quvchini faol shaxsga aylantirishga ko'maklashadi. Shu bilan birga ularning hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun bunday vositalarni tizimli va samarali ishlab chiqish va dars jarayoniga tatbiq etish hozirgi kunda zamonaviy ta'limning asosiy talablaridan va tamoyillaridan biri hisoblanib kelmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

**1** Abdullayeva Q.(2020). Pedagogik texnologiyalar va vositalar.- Toshkent. Fan va texnologiyalar nashriyoti.

2. Hasanboyeva O, Jo'rayev R. (2019). Pedagogika nazariyasi va amaliyoti.- Toshkent TDPU nashriyoti.

3. Xodjayev B. (2021) Innovatsion pedagogic texnologiyalar.- Toshkent. Ilm Ziyo nashriyoti.

4. To'xtaxodjayeva M.(2018). Kreativ tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli.- Toshkent. TDPU ilmiy to'plami.

5. Jalolov J. (2015) Pedagogik mahorat va ijodkorlik asoslari.- Toshkent. O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.